

## BIZNESNI TASHKILLASHTIRISHDA INVESTITSIYALARNING ROLI

**Mutalova Mohinur Bahodir qizi**

TDIU

Byudjet nazorati va g'aznachiligi yo'nalishi 3-kurs talabasi

@mohinurmatalova3110gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlatimizda ro'y berayotgan biznes salohiyati hamda investitsiya loyihalarini tashkillashtirishda xorijiy va mahalliy investitsiyalarning tutgan o'rni va muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatimizda kichik biznes faoliyatini tashkil etishda investitsiyalardan foydalanishning istiqbollari ko'rsatilgan. Bir qancha iqtisodchi olimlarning "Biznesni tashkillashtirishda investitsiyalarning roli" qay darajada muhimligi haqidagi fikrlari aks ettirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Kichik biznes, xorijiy investitsiyalar, mahalliy investitsiyalar, asosiy kapital.*

### **Kirish**

Hozirgi kunda biznesni rivojlantirish mamlakatimizning ijtimoiy hamda iqtisodiy barqarorlashuvini ko'rsatib beruvchi muhim omilga aylandi. Shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik bizneslarni yanada rivojlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash chora tadbirlariga davlat hukumati iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida muhim e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda biznes subyektlariga imtiyozli mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishga mo'ljallangan alohida kredit muassasasi – Mikrokreditbankning tashkil etilganligi va uning faoliyatini davlat tomonidan iqtisodiy hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlanayotganligi ushbu sohani takomillashtirish jihatidan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Hozirda biznes sub'yektlari faoliyatini takomillashtirish bevosita ularning ishlab chiqarish jarayonini

texnologik hamda texnik tomonlama qayta qurollantirishga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, ularning investitsion xarajatlarini qoplash yani moliyalash amaliyotini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. 2023-yil 31-may kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasining kengaytirilgan yig'ilishida ta'kidlanib o'tilganidek, investitsiya har qanday mamlakat iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi, rivojlanishini ta'minlovchi sifatida muhim hisoblanadi. Iqtisodiyot taraqqiyoti ham bevosita investitsiyaga bog'liqdir. Shu tufayli yaqin yillarda davlatimizda investorlar huquqlarini ishonchli mudofaa qilish bo'yicha yanada keng islohotlar amalga oshirilib, ular uchun ma'lum shart-sharoitlar yaratish, ko'chmas mulk sotib olish hamda O'zbekistonga kelib-ketish va yashash shartlari yanada soddalashtirildi.[1]

### **Adabiyotlar tahlili**

O'zbekiston Respublikasi ko'p ukladli iqtisodiy davlat bo'lib, unda investitsiyalar hamda ularni biznesni rivojlantirishdagi qo'shadigan hissasi kata ahamiyat kasb etadi.

Xorij iqtisodchilaridan R. Breyli, S. Mayers, G. Birman, V. Livshitslar investitsiya va ularni moliyalashtirish masalalari, shuningdek, ular bilan bog'liq bo'lgan muammolarni ko'rib o'tgan.[2]

L.D. Gitman va M.D. Djonklarning "ОСНОВЫ ИНВЕСТИРОВАНИЯ" kitobida investitsiyalarga quyidagicha ta'rif beriladi: Investitsiya moliyaviy natijalami ko'zlab aksiya va obligatsiyalami sotib olishni anglatadi: bular real aktivlarni belgilaydi, masalan, u yoki bu molni ishlab chiqarish va sotish uchun mashinalarni olishni nazarda tutadi. Umuman, keng ma'noda investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini o'stirish va rivojlantirishni moliyalashtirish uchun zarur bo'ladigan mexanizmlarni ta'minlaydi.[3]

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, nafaqat biznesni balki, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda mahalliy hamda xorijiy investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

## Tahlil va natijalar

Makroiqtisodiy tahlil hamda bashoratlash tadqiqotlar instituti ekspertlari 2017-2022-yillarda O‘zbekistonga mahalliy hamda xorijiy investitsiyalarni qabul qilish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasini tahlil qildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda investitsiyalar va biznes yo‘lidagi to‘siqlar yengillashtirilib, ochiq hamda qat’iy siyosatni joriy etmoqda. Hozirda mamlakatimiz Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi yirik hamda nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan.

Ko‘rsatilayotgan faol tashqi siyosat natijasida mamlakatimizga investitsiya kiritayotgan davlatlar ro‘yxati ham yanada oshmoqda. 2022-yilda, mamlakatimizda olib borilayotgan turli keng ko‘lamli iqtisodiy hamda ijtimoiy sohalarga investitsiya kiritgan davlatlar soni 50 dan oshdi. Bular qatorida Xitoy, Rossiya, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreya kabi davlatlar yetakchilik qilmoqda.

Respublikamizga kiritilayotgan kreditlar hamda xorijiy investitsiyalar hajmi 2017-yilda 3,3 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilning so‘ngida bu ko‘rsatkich uch barobar oshib, 9,8 milliard AQSH dollariga yetdi. Natijada kreditlar va xorijiy investitsiyalarning barcha investitsiyalardagi miqdori 23,8% dan 40,5% gacha oshdi. Shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri kreditlar va xorijiy investitsiyalar hajmi 2017-yilga kelib 2,5 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 3,4 marta oshdi va 8,5 milliard AQSH dollariga yetdi. Bu ulushlarning barcha investitsiyalardagi miqdori 17,7% dan 35,4% gacha ortdi.

Xorijiy va mahalliy investitsiyalar qatnashgan tashkilot hamda korxonalar soni ham yil sayin oshmoqda. Xususan, 2017-yilda 5,5 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda, bu miqdor 15,8 mingtaga yetdi. Shundan 6,4 mingtasi qo‘shma korxonalar, 9,3 mingtasi to‘liq xorijiy korxonadir.

Xorijiy kapital qatnashgan korxonalarning 30,5%i savdo, 27,5%i sanoat, 8,0%i qurilish, 4,8%i qishloq xo‘jaligi, 4,1%i yashab turish va ovqatlanish muassasalari, 2,9%i saqlash va tashish, 4,8%i aloqa va axborot yanalishlarida, 17,4%i boshqa sohalarda faoliyat yuritmoqda.[4]

## Metodologiya

Ushbu maqolada mahalliy va xorijiy olimlarning biznesni rivojlantrishda investitsiyalarning ahamiyati va uni rivojlanishiga to'siq bo'layotgan bir qancha omillar hamda ularni oldini olish chora-tadbirlari to'g'risidagi ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida baholash, monitoring, analiz ,sintez kabi bir qancha usullardan foydalanildi.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda,xorjiy hamda mahalliy investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi kuch hisoblanadi.Shu tufayli barcha imkoniyatlarni ishga solib kichik biznes iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish zamon talabidir.Investitsiya faoliyatida asosiy e'tiborni rivojlanish darajasi past bo'lgan hududlardagi kichik biznes subyektlariga qaratish maqsadga muvofiqdir.Aynan maqsadli yo'naltirilgan investitsiya siyosati mamlakatdagi biznesni iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.<https://parliament.gov.uz/news/xorijiy-investitsiyalar-taraqqiyotga-xizmat-qiladi>
2. Kashidov O.Y., Qurbanov H. A., karlibaeva R.X., Organization and finanstion investment. Manual. -T.: pub. LFUWU. 2005. 128 p
3. Investitsiyami tashkil etish va moliyalashtirish: kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma/ Z.Ya. Xudoyberdiyev, D.O. Rustamova, N.M. Majidov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. -Ikkinchi nashri. -T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. -192 b.
4. <https://www.biznesrivoj.uz/articles/2017-2022-yillarda-o-zbekistonga-xorijiy-investitsiyalarni-jalb-qilishga-qaratilgan-chora-tadbirlar-natijasi>